

## P.I. CHAYKOVSKIY IJODIDA ERTAK-EPIK JANRINING USTUNLIGI

### Muqadas Mahmudova

Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi  
Musiqa nazariyasi bo‘limi o‘dituvchisi

### Ruxshona Atkiyoyeva

Farg‘ona davlat universiteti  
San’atshunoslik fakulteti  
Musiqiy ta’lim yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XVIII asrning atoqli rus kompozitori, yirik simfoniyachi, musiqiy dramaturg, dirijyor, pedagog, ko‘plab barhayot asarlar muallifi Pyotr Illich Chaykovskiyning hayoti davomida bosib o‘tgan ijod yo‘li haqida fikrlar keltiriladi. Qolaversa, kompozitor asarlarida ertak-epik janrlarning alohida ahamiyatga ega ekanligi va ijodi davomida yondashgan eng yorqin mavzular aynan shu janr orqali keskin yoritilganligi to‘g‘risidagi mulohazalar atroflicha ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** kompozitor, ertak-epik janr, simfoniya, dramaturgiya, vals, romantizm, skerco, ballada, polifoniya, balet, opera, simfonik orkestr, ohang.

Har bir asr o‘ziga xos voqeliklari bilan ajralib tursa, har bir davr o‘ziga xos musiqiy oqimlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Shu jumladan ushbu oqimlar bevosita aynan shu davrda yashab o‘tgan kompozitorlar tomonidan yanada takomillashtirilgan. Oqimlarning rivojlanishi yangi janrlarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Musiqaga ehtiyoj ortgani sari yangi janr va yangi uslublar yaratila boshladi. Shuni ham ta’kidlash joizki, yangi janrlarni paydo bo‘lishiga turki bo‘lgan eng katta omillardan biri bu “muhit” bo‘ldi. Insonlar yashayotgan muhitidan kelib chiqib musiqa yoza boshladi. Misol uchun XVI asr “borokko” davrida asosiy janr “polifoniya” janri bo‘ldi. XVII asrda esa “klassitsizm” davrining yetakchi janri bu klassik “namuna”, xalq kuylari asosida yuzaga chiqdi. Va eng notinch davrlardan biri, Fransuz revolyutsiyasi voqeasi bilan yodga olinadigan davr XVIII asr “romantizm” davri bevosita yorqin va muhabbatga intiluvchi janrlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Bular orasida eng ko‘p janrlarni ichiga olgan davr romantizm davri bo‘ldi. Ushbu davrda yangi janrlar: vals, mazurka, fantaziya, ballada, skerco va boshqalar paydo

bo‘ldi.<sup>1</sup> Xalq ertaklari, fantastik voqealar va obrazlar bilan bog‘liq mavzular ham romantik kompozitorlar tomonidan keng qo‘llanildi. Shu jumladan rus kompozitori Pyotr Ilich Chaykovskiy ushbu janrga befarq bo‘la olmadi.

**Pyotr Ilich Chaykovskiy** 1840-yilning 25-aprelida hozirgi Votkinsk shahrida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. 1893-yil 25-oktyabrdha Peterburg shahrida vafot etgan. 53 yil umrini musiqa uchun bag‘ishlagan. Rus kompozitori, yirik simfoniyachi, musiqiy dramaturg, dirijor, musiqiy pedagog sifatida o‘z faoliyatini unumli olib borgan. 1865-yilda Peterburg konservatoriyasini tugatgan. 1866 va 1878-yillar oralig‘ida Moskva konservatoriyasida professor lavozimini o‘tagan. 1885-yildan boshlab Rus musiqa jamiyati Moskva bo‘limining direktori bo‘lgan. 1887-yildan Rossiya, shuningdek, Yevropa va AQShda gastrolda bo‘lib, asosan, o‘z asarlariga dirijorlik qilgan. Chaykovskiy chuqur milliy, xalqchil va demokratik uslubdagi opera, balet, simfonik va kamer asarlarning yuksak namunalarini yaratgan. Uning ijodi rus romansi, xalq qo‘schiqlari va romantizm davri ohanglariga asoslangan o‘ziga xos musiqa uslubi bilan ajralib turadi. Chaykovskiy musiqasi nihoyatda ta’sirchanligi, ajoyib ohangdorligi, yorqin ifodaviy vositalari, jo‘shqin, hayajonli kuylarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Ijodida o‘ta nozik ruhiy jarayonlar bilan birga ko‘lami keng-muhabbat va taqdir, hayot va o‘lim, tabiat kabi mavzular o‘zining yuksak badiiy ifodasini topgan. Chaykovskiy turli janrlarda boy ijodiy meros qoldirib, 10 ta opera, 3 ta balet, 6 ta simfoniya, simfonik fantaziya, uvertyura va syuitalar, 3 ta fortepiano va 1 ta skripka uchun yozilgan konsertlari, diniy mavzudagi xor asarlari, shuningdek, fortepiano, skripka uchun pesalar hamda vokal musiqaning yetuk namunalarini yaratgan. Ayniqsa, 4-6 simfoniyalari (1877-1893), “Francheska da Rimini” (1876) va “Romeo va Julietta” (1869) simfonik uvertyura-fantaziyalar, “Italyancha kaprichio” (1880), skripka (1878) va fortepiano (1875) konsertlari, “Yevgeniy Onegin” (1878), “Qarg‘a motkasi” (1890), “Iolanta” (1891) operalari, “Oqqush ko‘li” (1876), “Uyqudagi go‘zal” (1889), “Shelkunchik” (1892) baletlari jahon simfonizmi cho‘qqilari hisoblanadi. Garmoniyadan rus tilida birinchi darelik (“Garmoniyani amaliy o‘rganish bo‘yicha qo‘llanma”, 1872) muallifi. Chaykovskiyning barcha asarlari nashr etilgan (Polnoye sobraniye sochineniy, t. 1-63, M., 1940-90). Votkinsk shahrida memorial muzeyi (1894-yildan) va Klin (1940) shahrida Pyotr Ilich Chaykovskiyning uy muzeyi mavjud. Moskva konservatoriysi, 1958-yildan Moskvada o‘tkaziladigan musiqa ijrochilari xalqaro tanlovi va boshqalarga Pyotr Ilich Chaykovskiy nomi berilgan.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. B.R.Yakubov 40-41 sahifalar.

<sup>2</sup> Xorijiy musiqa adabiyoti. N.Sharipov 167-169-sahifalar.



Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek turli janrlarga qo'l urgan kompozitor o'zining nafis va billurdek nozik hayoloti va tasavvurlari olamida o'z asarlariga jon bahshida etgan. Bunga misol tariqasida ertak-epik janrlarida yozgan "Oqqush ko'li", "Uyqudag'i go'zal", "Shelkunchik" (qarsildoq) baletlari yaqqol dalildir.

Kompozitorning ushbu san'at asarlari xalq ertaklari bilan uzviy bog'liqligi uchun ham 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan insonlarning qalbidan chuqur joy olgan. Ushbu asarlarni aynan shu janrda yozilganligining asosiy sabablaridan biri bu - yovuzlikni ezbilik yengishi, qora kunlar ortidan doim yorug' kunlarning kelishi, amaldorlar doim amaldor, kambag'allar doim kambag'al bo'lib qolavermasligi, yaxshilikning ham yomonlikning ham bir kun charxpalak bo'lib o'ziga qaytishi, adolatning sinmasligi va doim xalq orasida qahramonlarning yashashi va ularning mavjudligi yetarlicha asos qilib olingan.

Xalqimiz orasida bir gap bor - "Ertaklar- yaxshilikka yetaklar". Darhaqiqat, hech bir ertak yo'q-ki, yakuni fojea bilan tugallangan. Ertaklarning asosiy vazifasi va maqsadi ham aynan shunda. Bolani yillar davomidaadolatparvarlik, mehr-muhabbat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, uni kamolotga yetkazadi. Pyotr Ilich Chaykovskiy ham aynan shuni inobatga olgan holda kelajak avlodni har tomonlama yuksak bo'lishi, manaviy estetik kamolotga yetishi va komil inson bo'lib shakllanishida xalq ertaklari va musiqani bevosita sababchi qilib olgan.

Musiqa tinglagan va uni sevgan insondan yovuzlik chekinadi. Haqiqatdan ham musiqachi va san'at shinavandasib bo'lgan inson hech qachon qora g'uborlar haqida hayollar ham surmaydi , ular haqida o'ylamaydi ham.

Oddiy misol tariqasida Chaykovskiyning "Oq qush ko'li" baleti yetuk musiqiy hayolot olamining yorqin mahsulidir.



Ushbu asardagi nozik mavzu va bejirim musiqiy ifodalar asarni tinglovchi ongiga chuqr joylashishi uchun ma'naviy zamin yaratib beradi.

Kompozitorning "Uyqudagi go'zal" (yohud "Uyqudagi malika") baletining



asosiy mavzusi dunyoni ezgulik va muhabbat qutqarishi, zero, muhabbat asli

yengilmas, o‘lmas tuyg‘u ekanligi va har bir qalbda sevgining mavjudligi, muhabbatsiz, his tuyg‘usiz jonzotning o‘zi yo‘qligi haqida namoyin qiladShu jumladan, “Shelkunchik” (“Qarsildoq”) baletidagi aktual mavzulardan

biri ham aynan mana shu, ya’ni, muhabbat-hissiyotsiz yog‘och o‘yinchoqni ko‘rkam va qalbi go‘zallikka boy shahzodaga aylantirgani ham asli mo‘jiza. Demak, ertak-epik janrlari insonda mo‘jizaga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlashga yordam bera oladi.

Xulosa o‘rnida shu ta’kidlash numkinki, hech bir insonning bolaligi ertaklarsiz o‘tmagan. Har bir yosh qalb egalari borki, mo‘jizaga ishonadigan. Pyotir Ilich Chaykovskiyning ertak-epik asarlarining maqsad va vazifalari ham aynan shundan iboratdir. Yaratilganiga 300 yil bolishiga qaramay ushbu asarlar hali-hanuz teatr sahnalaridan tushmagan. Bugungi kunda ham ushbu asarlarga bo‘lgan e’tibor va ehtiyoj haliveri so‘nmagan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Xorijiy musiqa adabiyoti. N.Sharipov 167-169-sahifalar.
2. Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti. B.R.Yakubov 40-41 sahifalar.
3. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2), 254-266.
4. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
5. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
6. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. Gospodarka i Innowacje., 34, 494-498.
7. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O ‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. Gospodarka i Innowacje., 34, 485-489.
8. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN’ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O ‘RNI VA AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 320-325.
9. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA "LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. Science and Innovation, 1(4), 23-28.

10. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
11. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
12. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
13. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
14. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
15. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
16. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(C4), 23-28.
17. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
18. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
19. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.
20. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.
21. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF